

Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim,  
jonim senga fido, O'zbekistonim!



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:39 (67100)

2016-yil

26-sentyabr



# Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan


O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**1-OKTYABR - O'QITUVCHI  
VA MURABBIYLAR KUNI**



**Ustodi avval, Siz komil va mumtoz,  
Siz ulug' muallim, murabbiy, ustoz!**



**Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, yaqinda O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun kuchga kirdi**

# YOSH AVLOD KELAJAGIGA MAS'ULMIZ!

Mamlakatimiz bolalar salomatligi haqida qayg'urish, yoshlarga mehr ko'rsatib, ilm olishlari yo'lida keng sharoit yaratish, qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy himoya borasida jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan. Yurtimizda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, farzandlarimizning yuksak darajada ta'lim olishlari barobarida ularni vatanparvar, el-yurt ravnaqi uchun yonib yashaydigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs bo'lib kamolga yetishlarida muhim o'rin tutadi.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunining targ'ibotiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Toshkent shahar hokimligi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, huquq-tartibot idoralari, ta'lim fidoyilari, ma'naviyat targ'ibotchilari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faollari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtidor sohiblari tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz ustuvorligi tamoyillariga tayanadigan mazkur hujjat IV bob, o'ttiz uch moddadan iborat bo'lib, qonunda hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport ishlari, mehnat, adliya, ichki ishlar, mudofaa, prokuratura idoralari, fuqarolik jamiyati institutlarining turli bo'g'inlariga taalluqli vakolatlar aniq belgilangan. Shu bilan birga, hujjatda yoshlar huquqlari va erkinliklarining, ularga oid ijtimoiy himoya kafolatlari, tadbirkor yigit-qizlar, iste'dod sohiblarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan.

Tadbirda so'zga chiqqanlar, ushbu huquqiy hujjat kelajak vorislari bo'lgan yosh avlodning chuqur bilim olishi, yuksak salohiyat egasi bo'lib voyaga yetishlari, bu borada yuqori idoralar, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirishda yangi uflarni ochib berishini ta'kidladilar.

Tadbir yakunida mutaxassislar ishtirokchi-yoshlarni qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob berdilar.

**Nurbek QIDIRALIYEV**



## MEHRI DARYO USTOZIM

Qo'limga qalam tutgan,  
Yozishni ham o'rgatgan,  
Qalbinga zavq uyg'otgan,  
Mehri daryo ustozim.



**Sevinch XURRAMOVA,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Yakkabog' tumanidagi  
5-umumta'lim maktabining  
5-sinf o'quvchisi

## SIZGA EHTIROM

**Ustozim Surayyo Murodovaga**

Mehringiz misli daryo,  
Ummonga o'xshar go'yo.  
Ravon edingiz yo'lim,  
Ochdim duoga qo'lim.

Doim kulib yuring siz,  
Saboq berib turing siz.  
Yo'limiz bo'ldi ravon,  
Ustoz, sizga ehtirom.

**Shahrizoda TILAVOVA,**  
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi  
1-umumta'lim maktabining  
3-«A» sinf o'quvchisi

# EL-YURT HURMATI – YUKSAK SHARAF

**O'qituvchilik mas'uliyatli, mashaqqatli, shu bilan birga, sharafti kasbdir. Millat farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, ularni yurt ravnaqi, Vatn kelajagi yo'lida komil insonlar qilib voyaga yetkazish har bir ustozdan sabr-toqat, izlanish, o'z ustida muntazam ishlash, ayniqsa, kasbga fidoyilikni talab etadi. Bu yo'lda halol mehnat qilib, zimmasidagi mas'uliyatni to'la-to'kis ado etganlar esa «Ustoz» degan ulug' maqomga erishadilar.**

Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi direktori Hamidjon Rahimov ana shunday o'z kasbiga fidoyi insonlardan.

Ustoz Farg'ona davlat universiteti (avvalgi Farg'ona davlat pedagogika instituti)ni tamomlagach, tumandagi 20-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida ish boshladi. Uzoq yillar tajribali o'qituvchilardan yo'l-yo'riq, maslahatlar olib, ularning o'g'itlariga amal qildi. O'tayotgan darsining bolalar yodida saqlanib qolishi uchun tinimsiz izlandi, har bir o'quvchi bilan mustaqil ishlashga intildi.

– Qarshingizda o'tirgan bolani hurmat qiling. Har safar darsga kirganingizda, oldimda buyuk inson o'tiribdi, u kelajakda nufuzli xalqaro mukofotlar sovrindori, tinchlik uchun kurashga, davosiz dardlarga dori ixtiro qiladigan olim, jahonga mashhur yozuvchi yoki shoir bo'lishi mumkin, deb o'ylang va uning kelajagi porloq bo'lishi uchun hissa qo'shayotganingizdan faxr hissini tuying. Ana shunda ustoz degan nomni oqlagan, o'z kasbingizga sadoqat bilan yondashgan bo'lasiz, – deydi Hamidjon aka.

Ustoz ushbu hayot haqiqatlariga amal qilib kam bo'lmadi. O'zi faoliyat yuritgan ta'lim

maskani pedagogik jamoasi va o'quvchilari orasida hurmat-e'tibor qozondi. U «Yilning eng yaxshi maktab direktori – 2014» Respublika ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi va uning ish tajribasi mamlakat miqyosida omalashtirildi.

– Bugungi maktab direktori bilan, bundan 15 – 20 yil oldingi ta'lim maskani rahbarini mutlaqo bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi. Hozirda dunyoda sodir bo'layotgan turli ko'ngilsiz hodisalar, yoshlar ongini zaharlash yo'lida amalga oshirilayotgan xurujlar har bir pedagogdan o'quvchining yurish-turishi, fanlarni o'zlashtirishi, ta'lim-tarbiyasida kuzatilayotgan salbiy o'zgarishlarni o'z vaqtida payqab, uni bartaraf etishni talab etadi. Zamon shu qadar tez rivojlanmoqda, ta'lim tizimida ozgina e'tiborsizlikka yo'l



Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi direktori Hamidjon Rahimov Istiqlolimizning 25 yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoni bilan «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandi.

qo'yish katta-katta muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Mustaqil yurtimizda qilingan hech bir mehnat besamar ketmaydi. Bundan keyin ham yosh avlod kamoloti yo'lida bor kuch-g'ayratim va bilimimni safarbar etaman, – deydi ustoz.

O'z navbatida biz ham tajribali ustozni yuksak mukofot bilan tabriklab, unga sharaftli mehnati yo'lida omadlar tilaymiz.

**Sa'dullo TURSINOV**

# SATRLARGA KO'CHGAN TUYG'ULAR

**Vatan! Uni har kim o'zicha tasavvur qiladi, sevadi. Bu muqaddas so'zning ma'no-mazmunini chin dildan his etmoqlik faqatgina ko'ngli toza, beg'ubor, hayotda o'z maqsadiga ega insonlar qo'lidan keladi. Bu tuyg'u esa har bir insonni mudom ezgu amallarga chorlab turadi. Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash, uning kelajagi uchun qayg'urish istagini dillarga soladi.**

Adabiyot, she'riyat olamiga havasmand yosh qalamkashlarning tahririyatga yo'llagan ijod namunalarini ko'zdan kechirib, ularning musaffo qalblaridan to'kilgan satrlarda ana shu beqiyos hissiyotni – Vatanga muhabbat tuyg'usini his qilib, ko'nglimiz osmon qadar bo'ylaydi. Ularning ona yurtimizga hali hech kim berolmagan yangi ta'riflar, tashbehlar ay-tish yo'lidagi izlanishlari, urinishlaridan quvo-namiz.

Toshkent viloyati, Bekobod tumanida-gi 20-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Dilshodaxon ABDUSALOMOVA «Vatanim» nomli she'ri orqali ona yurtimiz madhini kuylaydi, unga bo'lgan muhabbatini izhor etadi, go'zal, betakror tabiatini quyidagi she'riy chizgilar orqali ifodalashga urinadi:

**Yetti iqlim ichida  
o'zing bir donam,  
Bebaho boyligim,  
zebim, durdonam,  
Go'zallikda tengsiz,  
tanho, yagonam,  
Mudom yashnayvergin,  
chamanistonim!**

**Buloqlaring zilol,  
zaminig zardir,  
Qoshingda musaffo  
osmoning bordir,  
Sen borsan menga  
baxt, saodat yordir,  
Ona yurtim mening,  
O'zbekistonim!**

...Qo'limizda bir dasta mak-tublar. Ularning aksariyati mam-lakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovga bag'ishlangan she'riy mashqlar, badiialar ekanligi dono yo'l boshchimizning yurtdoshlarimiz, xususan, yoshlarimiz qal-bidan ham naqadar chuqur joy olgani, ular-ning cheksiz mehr-muhabbatiga sazovor bo'lganidan dalolat. Qolaversa, xalqimiz otasining porloq xotirasiga minnatdor yosh qalblar hurmati, ehtiromi namunasi, vatanpar-varlikning yorqin ifodasidir.

Buxoro viloyati, BDU 1-bosqich talaba-si Dinora UMARQULOVAning tahririyatga yo'llagan dilonomasini o'qib, barchamizning dilimizdagi, tilimizdagi fikrlar bayon etilgan quyidagi satrlarini e'tiboringizga havola etish-ni lozim topdik:

«...Birinchi Prezidentimiz chin insoniy fazi-latlarning barchasini o'zida mujassam etgan buyuk bir simfoniya o'xshardi. Yurtimizda Yurtboshimiz e'tiboridan chetda qolgan biror soha bo'lmasa kerak. Chorak asrdan ziyod hayot yo'llarimizni yoritib kelgan dono, zakiiy, uzoqni ko'ra oladigan o'tkir nigohli millatimiz yo'l boshchisining fayzli siyosi bundan keyin ham bizni nurlu, saodatli manzillar sari chor-

layveradi. Umumiy uyimiz – O'zbekistonimizni tinch, osuda yurtga aylantirgan, unga betimsol qiyofa baxsh etgan bu Insonning aziz xotirasi biz uchun ham, kelajak avlodlar uchun ham mardlik, fidoyilik, vatanparvarlikning beqiyos namunasi bo'lib qolajak».

Yana bir buxorolik yosh qalamkash – G'ijdu-vo tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi Gulbahor OLIMOVA «Mangu siymo» nomli she'rida ilk sarbonimiz-ga bo'lgan mehrini quyidagicha ifodalaydi:

Uning sinfdoshi Anora FAYZIYEVA esa «Ar-monga aylangan diyor» deb nomlagan she'ri-da «Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?» de-gan hayotiy savolga javob izlaydi:

**Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik,  
Necha asr yig'lab, bugun biz kuldik,  
Shu Vatan bag'rida ulg'aydik, undik,  
Bu Sizning mehnatingiz edi, bobojon,  
Chekkan zahmatingiz edi, bobojon!**

«Endi Islom bobomizning mehri ko'zla-rini, dono so'zlarini sog'inib yashaymiz», deya qalb iztiroblarini «Bobojon» nomli she'riga singdirishga uringan na-voiylik ijodkor qizimiz Umida SULAYMONOVA shunday yozadi:

**Islom bobo, nomingiz,  
Dilda mangu yashaydi.  
So'z beramiz, O'zbekiston  
Mudom gullab, yashnaydi.**

Toshkent viloyati, Bekobod tumani, «Kamolot» YOIH fao-li Marhabo G'AFUROVA esa qalb kechinmalarini «Ishon-chingiz oqlaymiz!» nomli she'ri orqali bayon etishga urinadi:


**Bugundan ham yorug'  
kelajak qurish,  
Ezgu niyatingiz edi,  
bobojon.  
Ertamiz egasi yosh  
lar, dedingiz,  
Ishonchingiz oqlaymiz  
bizlar begumon.**

**«Shu yurt bolalari mening bolam», deb,  
Bizni quchardingiz ezgu niyatda.  
Siz solgan yo'llardan boramiz, illo,  
Kuchli, dono, baxtli bo'lib, albatta...**

She'r – yurak mahsuli. U tuyg'ularning mu-jassamligi, izlanishlar silsilasida dunyoga keladi. She'riyat olamiga endi-endi qadam qo'yayotgan yosh qalamkashlarning yuqori-dagi she'riy mashqlarini kamchiliklardan xoli, mukammal she'r deb bo'lmas, lekin ularning adabiyotga, she'riyatga habiblikla-rini, so'z aytishga bo'lgan urinishlarini, eng muhimi, atrofdagi voqea-hodisalarga be-farq emasliklarini, qalblarida vatanparvarlik tuyg'ulari ildiz otayotganini olqishlash ke-rak.

Ularning ilohiy so'z ustidagi mas'uliyatni teran his qilish, adabiyot gulshanida o'z o'rni, ovozigaga ega ijodkor bo'lish yo'lidagi intilishlari xayrli bo'lsin.

Feruza JALILOVA,  
«Shuhrat» medali sohibi



**Yurti, xalqi uchun jon fido qilgan,  
Qancha qancha insonlar nomin bilamiz.  
Islom Karimovdek xalqini suygan,  
Hazrati Insonga ta'zim qilamiz.**

**Zulmatlarda qolgan yosh bola misol,  
Xalqimiz tentirab to'rt tomon chopdi.  
Yorug'likni ko'rdi, ko'rdi quyoshni,  
O'ziga bir dono yo'l boshchi topdi.**

**U xalqning qo'lidan mardona tutib,  
Istiqlol niyatini soldi diliga.  
Yurtning ertasiga umid-la boqib,  
Ishonch-la bosh bo'ldi o'zbek eliga.**

**«Siz mening tayanchim, suyanchim», deya,  
Ishonch bildirdi u biz o'g'il-qizga.  
– Boshlagan ishingiz davom etamiz,  
Bobojon, chin va'da beramiz sizga!**



# ISTE'DODLI MATEMATIK OTASIDEK USTOZ BO'LMOQCHI

**O'zbek**

**zamini o'z bag'rida qanchadan qancha olim-u fuzalolarni yetishtirmadi, deysiz. Bugunga kelib buyuk ota-bobolarimizning ilm-fan yo'lida amalga oshirgan kashfiyotlari, yaratgan asarlarini butun dunyo olimlari tan olmoqda.**

Quvonarlisi, yurtimizda kamol topayotgan yosh avlod ham ajdodlariga munosib farzandlar bo'lib yetishish yo'lida tinmay o'qib, izlanmoqda. Buning yaqqol misolini iqtidorli o'g'il-qizlarimizning mamlakatimiz, qolaversa, dunyo miqyosida o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, fan olimpiadalaridagi munosib ishtirokidan ham ko'rish mumkin.

Shahbozning dadasi G'olibjon aka Jumaqulov ham matematik bo'lib, mana bir necha yildirki, Buxoro davlat universiteti qoshi-

dagi 3-Qorako'l akademik litseyida ushbu fandan o'quvchilarga saboq berib keladi. Onasi Fazilat opa Ashurova esa shu litseyning ona tili va adabiyot o'qituvchisi. Ular farzandlarining iqtidorini ro'yobga chiqarish, salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berib, bu yo'lida o'g'il-qizlariga qanot bo'lishdi.

**1-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Shahboz Hasanov yaqinda Tailandda o'tkazilgan yosh matematiklar xalqaro bellashuvida bronza medalni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini oqladi.**



– Mazkur yutuq uning kelajakda qo'lga kiritajak muvaffaqiyatlarining debochasi bo'lib xizmat qilishiga ishonaman, – deydi G'olibjon aka.

– Fan olimpiadasi bahslariga dunyoning 33 mamlakatidan kuchli bilimga ega o'quvchilar tashrif buyurdi. Biz, o'zbekistonlik o'quvchilar bor bilim-salohiyatimizni ishga soldik va guruh bahslarida kumush medal bilan taqdirlandik. Yakka bahslarda esa 3-o'ringa munosib topildim. Kelajakda dadam singari matematika fani o'qituvchisi bo'lishni niyat qilganman, – deydi Shahboz Hasanov.

Biz ham intiluvchan tengdoshingizga kelajakda ilm cho'qqilarini zabt etib, Mustaqil O'zbekistonimizga munosib farzand bo'lishiga tilakdoshmiz.

**Charos XUSHVAQTOVA**

**Ustoz deganda, birinchi o'qituvchim Muhabbat opa Ozodovanning nurli chehrasi ko'z o'ngingga keladi. Bizga harf tanitgan, alifbeni o'rgatgan ustozimiz bilan tez-tez uchrashib turamiz. Ular bilan har diydorlashganda qalbimda o'zgacha mehrni his qilaman.**

## ENG ULUG' MAQOM

Maktabimizda mehridaryo ustozlar talaygina. Jumladan, algebra fani o'qituvchisi Karomat Eshboyeva, biologiya fanidan Sohiba opa Mahmudqulova, geografiyadan Sabohat Qoralievva, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muazzam Berdiyeva, jismoniy tarbiyadan Faxriddin aka Xushvaqto'vni, rus tilidan Yulduz opa Jo'rayevani alohida tilga olish mumkin. Fursatdan foydalanib, barcha jonkuyar ustozlarni kasb bayramlari bilan muborakbod etaman.

**Sitora ABDURAHMONOVA, Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 63-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi**

## TA'LIM JONKUYARI

**Dilbarxon G'afurova Marg'ilon shahridagi 1-umumta'lim maktabida uzoq yillardan buyon yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan e'zozli o'qituvchilardan biridir.**

Ustoz saboq bergan o'quvchilar hozirda turli sohalarida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Muallima yangilikka intilishda jamoadoshlari orasida ajralib turardi. U shahar, viloyat, hatto Respublika miqyosida ochiq darslar bera boshladi. Fan kabinetlarini jihozlash, pult bilan boshqariladigan texnika vositalaridan foydalanishdagi tajribasi o'qituvchilar malakasini oshirish institutida ommalashtirildi. Uning o'quvchilaridan M. Ahmadjonov, H. Akbarova, N. Nurmatova, Z. Obidova kabi o'quvchilar respublikada o'tkazilgan fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

Ustozning samarali mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Oliy toifali metodist o'qituvchi, «Xalq ta'limi a'lochisi», «O'zbekiston xalq o'qituvchisi» unvonlariga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda nabira va evaralar qurshovida keksalik gashtini surayotgan Dilbarxon opaga bayramingiz muborak bo'lsin, deymiz.

**Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri**



## SEVIMLI

## O'QITUVCHIM

– Aziz o'quvchilar, uyg'a vazifani kim doskada yechib beradi?

Biz baravariga qo'l ko'taramiz.

– Bir, ikki uch... juda yaxshi, bugun hamma darsga tayyor.

Men qo'limni sinfdoshlarimdan ham balandroq ko'taraman.

– Qani, Laylo qizim, sendan boshlaymiz...

Uyg'a vazifani ko'ngildagidek bajargach, kundalik daftaringga kattakon «5» baho oldim. Endi keyingi darsga tayyorlanishim kerak...

Har kunimiz shunday o'tadi. Sevimli ustozimiz, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Salina Tatyana Nikolayevnani hamma-

miz yaxshi ko'ramiz. Chunki ustozimiz shirinso'zligi, mehribonligi bilan barcha o'quvchilarning ko'ngliga yo'l topa oladilar. O'qituvchimizning jonkuyarligi, talabchanligi bizga juda yoqadi. Har bir darsni qiziqarli va tushunarli tarzda o'tadilar. Yaqinda yurtimizda O'qituvchi va murabbiylar bayrami nishonlanadi. Men Tatyana Nikolayevnani bayram bilan chin dildan muborakbod etaman. Ular hamisha biz singari shogirdlariga sevimli ustoz bo'lib yuraversinlar.

**Laylo NURMUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 184-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi**

# SINF RAHBARLARI o'zaro tajriba almashishdi

Ma'lumki, sinf rahbari ta'lim-tarbiya tizimidagi tayanch ustunlardan biri sanaladi.


Sinf rahbari o'quvchilardan iborat ahil, faol jamoani tashkil etadi, ularni tarbiyali shaxslar, kelajagi buyuk davlatning haqiqiy egalari, komil insonlar etib voyaga yetkazish borasida mehnat qiladi.

Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, uni to'g'ri tashkil etish, ilg'or ish tajribalari yuzasidan o'rtoqlashish, uni ommalashtirish maqsadida poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 215-umumta'lim maktabida har oyning oxirgi se-shanba kuni sinf rahbarlar uslubiy birlashmasi yig'ilishi bo'ladi. Ta'lim maskanidagi navbatdagi yig'ilish seminar-trening tarzida o'tkazilib, unda tumandagi 30 ta umumta'lim maktabidan tashrif buyurgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

– Sinf rahbarining o'quvchilar tarbiyasida muhim o'rni bor, – deydi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Gulnora Mamajonova. – Maktabning ilg'or o'qituvchilari

Nargiza Xudoyberganovanning «Ingliz tilini o'rganamiz», Gulnora Sharipovanning «Kompyuter olamiga sayohat», Dilafro'z Narziyevanning «Qiziqarli geografiya» sinfdan tashqari tashkil etgan to'garak mashg'ulotlari hamda 4-«A» sinf rahbari Zarifa Saidvaliyevaning va 8-«B» sinf rahbari Zulumor Yunusovanning ochiq tarbiyaviy soatlari seminar ishtirokchilarida katta taassurot uyg'otdi. Har oyda bir marotaba sinf rahbarlarining hisobotlari tinglanib, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Sinf rahbarlarining o'quvchilar bilan olib borayotgan bunday samarali mehnatlari ularning bilimli, salohiyatli, iqtidorli bo'lib o'sishida o'z ijobiy samarasini bermoqda. Yoshlarning axborotlarni to'g'ri qabul qilishi ularning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Bilim va salohi-



yatda hech kimdan kam bo'lmagan yoshlarimiz ozod va obod Vatanimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishi, shubhasiz.

Nodira NAZAROVA

## LESSON 106

1<sup>st</sup> October – the Day of Teachers and Mentors

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### DESCRIPTION TO MY TEACHER (O'qituvchimga ta'rif)

The one who taught me a letter, I would be a slave for him.

Experience is the best teacher.

Necessity is a great teacher.


Give me a fish and I eat for a day. Teach me to fish and I eat for a lifetime.

A teacher takes a hand opens a mind and touches a heart.

The teacher is like the candle, which lights others in consuming itself.

### CROSSWORD


Write the teacher's everyday using things:



Prepared by Dinora ABDULLAJONOVA

### WISE APPRENTICE (Dono shogird)

Folktale



In ancient time a King has broken his drinking bowl. The potter's apprentice Nosir was beloved person to copy with this work. When the king came to reward, his minister dissuade him. He convinces the king that actually a drinking bowl was two, one of was stolen by Nosir and the second was broken. Before leaving in death Nosir took drinking bowl and showed a miracle, he twirled a drinking bowl and inside there were six more drinking bowls. The king cancelled death and awarded him.

We see that respect for teachers infinite among the people, pupils obtain in such honor thanks to their knowledge, generosity, wisdom and

kindness.

To respect teachers, to justify their trust and to be follower for ever it is a holy duty of each student. Teacher helps to reach perfection, to conquer the peak of knowledge. There each of us has to take care of the teachers, to please and hurry to their conversation.

Sarvinov NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

### FIND THE ODD WORD (Ortiqcha so'zni toping)

- Lamb, sheep, goat, **lamp**.
- Hat, cap, cup, fur hat.
- Lion, tiger, crocodile, bear.
- Dish, meal, fish, food.
- Carrot, cucumber, cannot, cabbage.
- Flower, tree, plant, bush.
- Write, writer, read, speak.
- Teacher, teach, tutor, master.

Shahlo NURMUHAMMEDOVA, English teacher of school №20 in Shofirkon district, Bukhara region

**1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan maqola yozmoqchi bo'lib, qo'limga qalam oldim-u xayolimdanda kechgan g'ujg'on fikrlar meni ushbu satrlarni qoralashga undadi.**

Dunyoda kasblar juda ko'p. Ular orasida o'qituvchilik eng ulug' kasb, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Nega-ki, ustozlar inson hayotiga mas'uldirlar. Dono xalqimizda «Ustoz otangdek ulug'», degan naql bejizga aytilmagan. Maktabga endigina qadam qo'ygan jajji o'g'il-qizlar qo'lga ilk bor qalam tutqazib, o'qish-yozishni o'rgatgan, oq-u qorani tanitgan, hayotga yo'llanma beradigan ham – ustoz-murabbiylar bo'lishadi.

Men o'qituvchilar oilasida tug'ilib, voyaga yetdim. Otam Muhammadjon Hotamov, onam Farizaxon Rustamova ham (Oloh ularni o'z rahmatiga olgan bo'lsin) oliy o'quv dargohida ko'p yillar ustozlik qilib, talabalarga dars berishgan. Oilamizda allomalarning: «O'qituvchining, avvalo, o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak», degan purhikmat iborasi tez-



tez tilga olinardi. «Ustoz shogirdlariga har tomonlama ibrat, namuna bo'lmog'i kerak. Agar o'qituvchi o'quvchilariga xushmuomalalikni o'rgatib, o'zi qo'pollik qilsa, u holda tarbiya o'z kuchini yo'qotadi», deb ta'kidlashardi ota-onam.

Ular olti nafar farzandlari – barchamizni oliy ma'lumotli qilib ulg'aytirishdi. El-yurt ko'riga yaraydigan insonlar etib tarbiyalashdi. Buning uchun

ulardan juda minnatdormiz. Opa-singillardan uch nafari ota-onamiz kasbini egalladi. Men ana shunday fidoyi kasb sohiblari oilasida ulg'ayganimdan hamisha faxrlanaman.

**Dilorom HOTAMOVA,**  
O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi esdalik nishoni sohibasi

## BELLASHUVLAR

### O'QUVCHILARNI IZLANISHGA CHORLAYDI

**Qashqadaryo viloyatidagi «Barkamol avlod» bolalar markazida tashkil etilayotgan ko'rik-tanlovlar, bellashuv va sport musobaqalari o'quvchilarni nafaqat izlanishga, balki o'z iqtidorlarini namoyon etishlariga turtki bo'lmoqda.**

– Malika, hademay Ustozlar bayramini nishonlaymiz, o'qituvchimizga sovg'a hozirladimmi?

– Albatta, mana buni ko'ryapsanmi, – deya dugonasiga turli munchoqlardan yasalgan bejirimgina gul daraxtini ko'rsatdi Umida. – Ustozga o'z qo'llarim bilan yasagan mana bu daraxtini sovg'a qilaman... Axir ustozimiz bejizga «ilm ko'piga yetkazar, hunar ko'kka...», demaydilar-ku...

Ikki dugonaning suhbatini o'qib, ularning eng nafis san'at turi hisoblangan «Munchoqli bezak» to'garagi a'zolari ekanligini payqadingiz, chog'i...

Bu ahil dugonalar Qashqadaryo viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazining «Munchoqli bezak» to'garagiga qatnaydilar. Bayram bahona mazkur markaz rahbari Muhayyo opa Meyliyeva bilan bog'lanib, to'garaklarning ayni damdagi faoliyati haqida suhbatlashdik.

– Viloyat hamda tuman «Barkamol avlod» bolalar markazlarida jami 4 yo'nalishda 36 turdagi 304 ta to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ularga 6892 nafar o'quvchilar jalb qilingan. O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida, markazimizda qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Yaqinda «Sog'lom bola – kelajak tayanchi» sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Qiziqarli va muhosasiz kechgan sport musobaqasida «Shaxmat-shashka» to'garagi a'zolari g'olib deb topilib, ular markazning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Bu tadbir o'quvchilarni yanada to'liqlantirib yubordi. «Loyning mo'jizakor xosiyati» deb nomlangan to'garaklararo musobaqa tashkil etilganida, bunga o'zimiz guvoh bo'ldik. Bolalarning bu tadbirga qizg'in tayyorgarlik ko'rib kelishgani, ularning porlab turgan nigohlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Musobaqada «Mayda plastika», «Rassomlik», «Pazandachilik» to'garagi a'zolaridan 10 nafardan jami 30 nafar o'g'il-qizlar 5 ta shart bo'yicha bellashdilar.

«Yilning eng yosh ixtirochisi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida esa tuman «Barkamol avlod» bolalar markazlaridan kelgan 16 nafar o'quvchilar ixtironing bugungi kundagi ahamiyati, dizayni, texnik talablarga javob berishi bo'yicha bellashdilar.

Suhbatimiz so'ngida ustoz mamakatimizdagi barcha hamkasblarini kasb bayrami bilan qizqin qutladi.

Biz ham mazkur markazda faoliyat yuritayotgan ustozlarni bayram bilan chin dildan tabriklaymiz. Ularning sharafli kasblarida omad yor bo'lishini tilaymiz.

**Ozoda TURSUNBOYEVA**

Qashqadaryo viloyatidagi 8-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Shalola Eshdavlatova markazning «Kulolchilik» to'garagiga qatnaydi.

Xorazm viloyati ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi Gulnoza Rajabova chizgan biri-biridan chiroyli rasmlarni ko'rib, ko'zim quvnadi.

## MAKTAB FAXRI



– Bolalik chog'imdanda rasm chizaman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitob o'qishni, she'r yodlashni, qo'shiq aytib, raqsga tushishni, tikish va to'qishni juda yaxshi ko'raman. Rus va ingliz tilida so'zlasha olaman. Koreys, xitoy, hind tilini o'rganishga harakat qilmoqdaman, – deydi Gulnoza.

– Gulnoza tasviriy san'at yo'nalishida o'ziga xos uslubda ijod qiladi, – deya suhbatga qo'shildi tasviriy san'at fani o'qituvchisi Nodira Sobirova. – U tengdoshlari orasida o'zining odobi va iqtidori bilan ajralib turadi. Xorijda o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib keladi.

Iqtidorli qizning sinf rahbari Farog'at opaning aytishicha, u nafaqat sinf, balki maktabning ham faxri ekan.

Mustaqilligimiz berayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, doimo yuksak cho'qqilar sari intilib yashayotgan iste'dod sohibasiga ijodiy parvozlar tilab, xayrlashdim.

**Sofiya NAZAROVA**



**Kechagidek yodimda. Akalarimning maktabga qatnab, saboq olishlari, kechki ovqatdan keyin birga dars tayyorlashlari, saboq yuzasidan bahs-munozaraga kirishib ketishlari havasimni keltirardi. Men ham maktabga boraman, deb qancha xarxasha qilmay, onam: «Hali maktab yoshiga yetmading, keyingi yil, albatta, borasan», deb yupatardilar. Shundan keyin ham oradan ikki yil o'tdi.**

# MENING BIRINCHI O'QITUVCHIM

Nihoyat, orziqib kutilgan kun keldi. Ertalab vaqtli turib, yangi kiyimlarimni kiydim-da, maktabga otlandim. Onam: «Bolam, hali vaqtli-ku, oldin nonush-ta qilib ol», dedilar. Apil-tapil choyimni ichdim-u daftar jildini yelkamga osgan-cha ko'chaga otildim. Akam orqamdan yetib oldi, maktabga birga keldik va u sinfxonamizni ko'rsatib qo'ydi.

Maktab deganimiz loysuvoq qilingan paxsali pastakkina bino edi. Bolalar 1-sinf dan 4-sinf gacha ana shu ko'rimsizgina qishloqning bir chekkasida

mung'ayib turgan maktabda o'qishar edi. Sinfxonaga bosh suqdim. Ohak hidi an-qib turgan, pol ham yotqizilmagan torgina xona, bittagina derazada oq surpdan tikilgan, eskirib ketgan parda osilgan. Yaqindagina qora bo'yoqdan chiqqan, zich qilib qo'yilgan eski partalarda o'n-o'n ikki nafar o'quvchi o'tirar edi. Ana, qo'shnimiz Zokir, uning yonida Salim baqqolning o'g'li Shuhrat o'tiribdi. Boshqa bolalar qo'shni qishloqdan kelishgan, ularni ham taniyman.

Biz – bolalar jimgina o'tirib, mo'jiza ro'y berishini kutardik. Mo'jiza bu bizning birinchi o'qituvchimiz edi. Mana, eshik asta ochilib, sinfxonaga miqtidan kelgan, bug'doyrang, sochi kalta qilib tekislangan o'ttiz yoshlardagi bir kishi kirib keldi. Hammamiz o'nimimizdan turib, baravariga: «Assalomu alaykum», deb salom berdik. O'qituvchimiz: «Vaalaykum assalom, o'tiringlar», dedi. Vujudini ozgina hadik, qo'rquv egallagan, ko'zlari jovdirab turgan biz bolalar-ni nigohi o'qituvchiga qadalgan edi. U qo'li-dagi sinf jurnalini stolga ohista qo'yar ekan, go'yo bizni diqqat bilan o'rganayotgandek bir-

bir qarab chiqdi-da, sekin so'z boshladi: «Bolalar, mening ismim Bahridin, familiyam Malikov. Men sizlarning sinf murabbiylaringiz bo'laman. Avvalo, odobli, intizomli bo'linglar, uy vazifalarini o'z vaqtda bajaringlar».

Kunlar bir zaylda o'taverdi. Bahridin aka qo'limizga ruchka tutqazib, harf yozishni o'rgatdi. Ustozimiz har bir dars mavzuni qiziqarli o'tar, erinmasdan tushuntirib, keyin esa o'zimizdan so'rab olar edi. Biz o'qituvchimizga tezda o'rganib ketdik va uni yaxshi ko'rib qoldik.

Ustozning yaxshi bir fazilati – u har bir o'quvchining fe'l-atvori, qiziqishiga qarab muomala qilardi. U biz uchun maktabimizdagi eng mehribon va bilimdon ustoz edi.

Birinchi o'qituvchimiz va bizga saboq bergan barcha ustozlarning bilimlari, bebaho maslahatlari bois, sinfdoshlarimning aksariyati o'qituvchilikdek sharafli kasbni tanlashdi.

Bugun endi davr, zamon boshqacha. Biz katta avlod vakillari mamlakatimizning har bir tuman, shaharlaridagi shinam, chiroyli, yorug', barcha zamonaviy texnika, texnologiyalar bilan jihozlangan sinfxonalarda yayrab-yashnab o'qiyotgan siz o'quvchilarni ko'rib, havasimiz keladi. Qani endi, mo'jiza ro'y berib bolaga aylanib qolsag-u biz ham ana shu maktablarda miriqib o'qisak.

**Yusufjon HAMDAMOV, O'zMU dotsenti**

**Buxoro shahridagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabida «Ustoz va shogird» an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan.**

## MURABBIYLAR

Hozirda ushbu qoidaga muvofiq muassasa murabbiylaridan Nargiza Nasullayeva yoshlarga tennis sport turi sirlarini o'rgatib kelmoqda. 2010-yil Xalqaro ITF murabbiylar malakasini oshirish seminari sertifikatiga

pog'onalarni egallab kelishmoqda. Shuningdek, Xalil Atojev, Zaynab Toshpo'latova va Nozima G'ulomova Buxoro viloyat terma jamoasi a'zolaridir.

Mashg'ulotlar davomida zamonaviy metod va uslubiy qo'llanmalardan unumli foydalanib kelayotgan Nargiza Nasullayeva yoshlar o'rtasida tennis tarixiga oid suhbatlar, «Salomlashish odobi», «Ustoz otangdek ulug'» kabi mavzularda ochiq darslar tashkillashtirimoqda.

O'z ustida tinimsiz ishlaydigan murabbiy shahar umumta'lim maktablari o'rtasida 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tennis bo'yicha turnir o'tkazishni rejalashtirimoqda. Shogirdlari esa xayrli maqsad yo'lida ustozga qo'shganot bo'lishmoqchi.

**Ulug'bek SAIDOV**



ega bo'lgan murabbiy o'z ishini 1-sinf bolalari bilan mashg'ulot o'tkazishdan boshlagan.

Uning shogirdlari Farangiz Rahmatova, Nazira Nusratova, No'mon Olimov mamlakat terma jamoasi a'zolari bo'lib, ular Respublika ochiq turnirlarida muntazam qatnashib, yuqori

## VELOMARAFON G'OLIBLARI ANIQLANDI

**Yurtimizda har yili «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashlari tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan velomarafonlar yoshlarni sportga jalb etishda muhim omil bo'lmoqda.**

Andijon-da «Kamolot-tur» IX yoshlar velomarafonining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Uch yosh toifasida ishtirok etgan 220 nafar havaskor sportchi bor mahoratini namoyish etdi. Musobaqaning 9 – 14 yoshlilar o'rtasidagi bahslarda Muzaffar Sobirjonov birinchi-likni qo'lga kiritgan bo'lsa, 15 – 17 yoshlilar o'rtasida Muhammadaziz Turg'unboyevga yetadigani topilmadi. 18–30 yoshlilar bellashuvida Temur Obidov mutlaq g'olib bo'ldi.

Shuningdek, marafonda «Eng yosh poygachi», «Eng faxriy poygachi», «Velopoygachilar oilasi», «Eng mahoratli texnik poygachi» nominatsiyalari g'oliblari ham aniqlandi.

G'oliblar mamlakat bosqichida kuch sinashadi.

**Muhammadsodiq ALIMOV**



**BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!**

# AYLANMA KROSSVORD

**Belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:** 1. Bilimlar maskani. 2. Muqovali yozuv ashyosi. 3. Asar mazmunining qisqacha yozma bayoni. 4. Ixtisoslashtirilgan o'rta ta'lim bilim yurti. 5. Ustozdan hunar o'rganuvchi. 6. Fizikaning yorug'lik hodisalarini o'rganuvchi bo'limi. 7. Gap bo'lagi. 8. Geografiyadan o'quv quroli, Yer shari nusxasi. 9. Yozma ish turi. 10. O'tmishni o'rganuvchi fan. 11. Namuna, o'mak. 12. O'quv qo'llanma. 13. Arifmetik amallardan biri. 14. Yozuv quroli. 15. Kasb-hunar bilim yurti. 16. «Guliston», «Bo'ston» axloqiy, ta'limiy asarlari muallifi, mumtoz shoir. 17. Bilim oluvchi. 18. Biror fandan dars beruvchi, ustoz. 19. O'quvchilarning davomat va o'zlashtirish jarayonlarini qayd etish daftari. 20. Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni.



**Tuzuvchi:**  
**Foziljon ORIPOV**

Kunlarning birida Salimning kitob javonidagi darsliklari birdan bahsga kirishdilar. Matematika kitobi dedi:

– Men insonlarga ko'proq kerakman. Meni fanlar shohi, deyдилar.

Ona tili ham bo'sh kelmadi:

– Odamlar, avvalo, to'g'ri o'qish va yozishni bilishlari kerak. Sendagi raqamlarni yozish va o'qishsiz tushunib bo'lmaydi. Aslida, raqamlardan avval yozuv kashf etilgan. Har bir fanda tilimizning o'rni alohida bilinib turadi. Axir o'z ona tilini bilmagan inson boshqa fanlarni qanday o'zlashtiradi?

Shu payt ularning bahsiga Ingliz tili darsligi qo'shildi:

## DARSLIKLAR BAHSI

(Ertak)



– Hozirda o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlari baland. Meni hamma qunt bilan astoydil o'rganmoqda. Til bilish – savodxonlik belgisi, til bilgan – el biladi, deyдилar...

Ularining bahslari qizg'in davom etib borayotgan edi, xonaga Salim kirib keldi. U javondagi barcha kitoblarni olib, dars tayyorlay boshladi. Shunda fanlarning har biri – o'z o'rmda kerakli ekanligini anglab yetdi...

**Guli Ra'no HAMIDULLAYEVA,**  
**Andijon viloyati, Buloqboshi**  
**tumanidagi 6-umumta'lim**  
**maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi**

8

26-sentyabr 2016

**Tong yulduzi**

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

**Bosh muharrir**  
**Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAYATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Bahodir GANIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Fëruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
**Dilorom HOTAMOVA**  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
**Fotomuxbir**  
Zubayda  
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilib va bosmaxona  
manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi – 26278  
Buyurtma – S 7079

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks:  
(99871) 244-63-08